

DINIY OZCHILIK SHAROITIDA MUSULMON JAMOALARINING IJTIMOY INTEGRATSIYALASHUV XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ МУСУЛЬМАНСКИХ ОБЩИН В УСЛОВИЯХ РЕЛИГИОЗНОГО МЕНЬШИНСТВА

CHARACTERISTICS OF SOCIAL INTEGRATION OF MUSLIM COMMUNITIES IN RELIGIOUS MINORITY CONDITIONS

ERNAZAROV Odiljon,

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN

PhD in history, Associate Professor of the UNESCO

Chair on religious studies and the comparative
study of world religions,

o.ernazarov@iiaau.uz,

11 A.Kadiri, Tashkent 100011, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2026/2/4

Annotatsiya: Mazkur maqolada diniy ozchilik sharoitida yashayotgan musulmon jamoalarining ijtimoiy integratsiyalashuv xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda “diniy ozchilik” tushunchasining sotsiologik, siyosiy va dinshunoslikdagi asosiy talqinlari yoritilib, uning xalqaro huquqiy asoslari ham ko‘rib chiqilgan. Muallif musulmon ozchiliklar fenomenining zamonaviy globallashuv sharoitidagi o‘rnini tahlil qilib, Yevropa, Shimoliy Amerika, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlaridagi musulmon jamoalarining integratsion tajribalarini qiyosiy jihatdan o‘rgangan. Xususan, Kanada va AQShdagi musulmon jamoalarining fuqarolik integratsiyasi, multikulturalizm va diniy bag‘rikenglikni rivojlantirishdagi ijobiy tajribalari yoritilgan. Shuningdek, Buyuk Britaniya va Germaniyada musulmonlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi faolligi demokratik integratsiyaning muhim ko‘rinishi sifatida baholangan.

Maqolada Fransiya, Hindiston, Xitoy va Myanmadagi musulmon ozchiliklar duch kelayotgan diskriminatsiya, islamofobiya, siyosiy marginalizatsiya, diniy erkinliklarning cheklanishi va identitet inqirozi kabi muammolar ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Toriq Modud (Tariq Modood), Xoselina Kesari (Jocelyne Cesari), Xose Kasanova (José Casanova), Yusuf Qardoviy kabi olimlarning nazariy qarashlari asosida musulmon ozchiliklarning integratsiyasi masalasi yoritilgan. Shuningdek, “fiqh al-aqalliyāt” konsepsiyasi, inklyuziv sekulyarizm, madaniyatlararo muloqot va fuqarolik integratsiyasi asosida mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari diniy ozchiliklar integratsiyasi zamonaviy demokratik jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik birdamligi va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlovchi muhim omillardan biri ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Diniy ozchilik, musulmon jamoalari, ijtimoiy integratsiya, multikulturalizm, islamofobiya, fuqarolik integratsiyasi, diniy bag‘rikenglik, sekulyarizm, fiqh al-aqalliyāt, identitet.

Аннотация: В данной статье комплексно анализируются особенности социальной интеграции мусульманских общин, проживающих в условиях религиозного меньшинства. Исследование раскрывает основные социологические, политологические и религиоведческие подходы к понятию «религиозное меньшинство», а также рассматривает международно-правовые основы защиты прав религиозных меньшинств. Автор исследует феномен мусульманских меньшинств в условиях глобализации и проводит сравнительный анализ интеграционного опыта мусульманских общин в странах Европы, Северной Америки, Южной и Юго-Восточной Азии. Особое внимание уделяется положительному опыту Канады и США, где мусульманские общины активно участвуют в общественной, образовательной, экономической и политической жизни, способствуя развитию мультикультурализма и религиозной толерантности. Также рассматривается участие мусульман в демократических институтах Великобритании и Германии как показатель успешной гражданской интеграции.

Вместе с тем в статье анализируются проблемы, с которыми сталкиваются мусульманские меньшинства во Франции, Индии, Китае и Мьянме, включая дискриминацию, исламофобию, политическую маргинализацию, ограничение религиозных свобод и кризис идентичности. Теоретической основой исследования послужили труды таких ученых, как Тарик Модуд, Жослин Сезари, Хосе Казанова и Юсуф аль-Кардави. Особое внимание уделяется концепции «фикх аль-акаллийят», инклюзивному секуляризму, межкультурному диалогу и гражданской интеграции как механизмам решения существующих проблем. Результаты исследования показывают, что успешная интеграция мусульманских меньшинств способствует укреплению социальной стабильности, гражданской солидарности и религиозной терпимости в современных демократических обществах.

Ключевые слова: Религиозное меньшинство, мусульманские общины, социальная интеграция, мультикультурализм, исламофобия, гражданская интеграция, религиозная толерантность, секуляризм, фикх аль-акаллийят, идентичность.

Abstract: This article provides a comprehensive scientific, theoretical, and practical analysis of the characteristics of the social integration of Muslim communities living under conditions of religious minority status. The study examines the sociological, political, and religious approaches to the concept of “religious minority” and explores the international legal foundations related to the protection of minority rights. The author analyzes the phenomenon of Muslim minorities within the context of globalization and conducts a comparative study of integration experiences in Europe, North America, South Asia, and Southeast Asia. Particular attention is paid to the positive experiences of Muslim communities in Canada

and the United States, where Muslims actively participate in educational, economic, social, and political life while contributing to multiculturalism and religious tolerance. The article also highlights the participation of Muslims in democratic institutions in the United Kingdom and Germany as examples of successful civic integration.

At the same time, the study investigates the major challenges faced by Muslim minorities in France, India, China, and Myanmar, including discrimination, Islamophobia, political marginalization, restrictions on religious freedom, and identity crises. The theoretical framework of the research is based on the works of prominent scholars such as Tariq Modood, Jocelyne Cesari, José Casanova, and Yusuf al-Qaradawi. The article further discusses the concepts of *fiqh al-aqalliyāt* (jurisprudence of Muslim minorities), inclusive secularism, intercultural dialogue, and civic integration as important mechanisms for addressing existing problems. The findings demonstrate that the successful integration of Muslim minorities contributes significantly to strengthening social stability, civic solidarity, democratic pluralism, and religious tolerance in modern societies.

Keywords: Religious minority, Muslim communities, social integration, multiculturalism, Islamophobia, civic integration, religious tolerance, secularism, *fiqh al-aqalliyāt*, identity.

KIRISH

XXI asr globallashuv, migratsiya, urbanizatsiya va geosiyosiy beqarorlik jarayonlari bilan tavsiflanayotgan “noaniqlik davri” (Times of Uncertainty) sifatida talqin qilinmoqda. Bu jarayonlar jamiyatlarning etnik, madaniy va diniy tarkibini murakkablashtirib, diniy ozchilik guruhlarining ijtimoiy hayotdagi oʻrnini qayta koʻrib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, turli tarixiy va hududiy sharoitlarda diniy ozchilik maqomida yashab kelayotgan musulmon jamoalarining ijtimoiy integratsiyasi zamonaviy ijtimoiy fanlar, siyosatshunoslik va dinshunoslik uchun dolzarb tadqiqot mavzusiga aylandi.

Mazkur tadqiqot diniy ozchilik sharoitida musulmon jamoalarining ijtimoiy integratsiyalashuvi qanday tamoyillar, strategiyalar va institutlar asosida amalga oshganini, ushbu tajribaning bugungi noaniqlik davrida ijtimoiy barqarorlik, siyosiy konsensus va ilm-fan taraqqiyotiga qanday xizmat qilishi mumkinligini kompleks yondashuv asosida tahlil qilishni maqsad qiladi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda diniy ozchiliklar masalasi, koʻpincha, xavfsizlik, radikallashuv, identitetlik inqirozi kabi muammolar kontekstida oʻrganilgan. Biroq, musulmon jamoalarining tarixiy tajribasi shuni koʻrsatadiki, diniy ozchilik maqomi doimo ijtimoiy chekinish yoki ziddiyat manbai boʻlmagan. Aksincha, koʻplab tarixiy davrlarda musulmonlar oʻzlarini yashab turgan jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashgan, ijtimoiy hamkorlik va madaniy almashinuvni rivojlantirgan.

Shu bois tadqiqotning asosiy muammosi sifatida diniy ozchilik sharoitida musulmon jamoalarining ijtimoiy integratsiyasini taʼminlovchi omillar va tamoyillar hamda ularning bugungi global noaniqlik davridagi amaliy ahamiyatini aniqlash belgilangan.

MAQSAD VA VAZIFA

Diniy ozchilik sharoitida musulmon jamoalarining ijtimoiy integratsiyalashuvi xususiyatlarini tarixiy, sotsiologik va dinshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilish hamda ushbu tajribaning zamonaviy jamiyatlar uchun konseptual ahamiyatini ochib berish tadqiqotning maqsadini tashkil qiladi. Ushbu maqsadga yetishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: “diniy ozchilik” va “ijtimoiy integratsiya” tushunchalarining nazariy asoslarini tahlil qilish; turli tarixiy davrlarda musulmon jamoalarining ozchilik maqomidagi ijtimoiy tajribasini oʻrganish; musulmon jamoalarining integratsiyaga erishish tamoyillari va strategiyalarini aniqlash; ushbu tajribaning ijtimoiy hamkorlik va siyosiy konsensusga taʼsirini baholash; noaniqlik davrida mazkur modelning ilm-fan va jamiyat taraqqiyotiga qoʻshadigan hissasini asoslash.

USLUBLAR

Metodologik jihatdan tadqiqotda tarixiy-taqqoshlash, kontent tahlil, normativ-huquqiy tahlil, interdisiplinar yondashuv usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR

Tarixiy manbalar musulmon jamoalarining diniy ozchilik sifatidagi tajribasi turli makon va zamonlarda mavjud boʻlganini koʻrsatadi. Masalan, musulmonlar Vizantiya va Xitoy hududlarida savdogar va ilm ahli sifatida ijtimoiy hayotga singib ketgan. Musulmonlar Andalusiya va Bolqon mintaqasida koʻp diniy jamiyatlarda madaniy koʻprik vazifasini bajargan. Mustamlakachilik davrida musulmon ozchiliklar mahalliy jamiyatlar bilan moslashuv strategiyalarini ishlab chiqqan. Bu jarayonlarda asosiy integratsiya mexanizmlari – iqtisodiy hamkorlik, taʼlim va ilmiy faoliyat, axloqiy namuna, mahalliy huquqiy tizimlarga moslashuv orqali namoyon boʻlgan.

Diniy ozchilik sharoitida musulmon jamoalarining ijtimoiy integratsiyasi masalalarini bir guruh olimlar Gʻarb jamiyatlari misolida oʻrganishgan boʻlsa, boshqa bir guruh tadqiqotchilar mavzuga musulmon dunyosining munosabati prizmasida qarashgan. Birinchi guruhga Tariq Modood, Jocelyne Cesari, Muqtedar Xon va boshqa ekspertlarni kiritish mumkin. Ingliz sotsiologi va migratsiya, diniy ozchiliklar integratsiyasi

bo'yicha nomdor olim Tariq Modoodning izlanishlari multikulturalizm, din va identitetlar integratsiyasiga qaratilgan bo'lib, u musulmon jamiyatlarining Yevropa kontekstida qaysi omillar orqali ijtimoiy qabul qilinishini o'rgangan. Modood ta'kidlaydiki, integratsiya — bu yo'naltirilgan huquqiy qabul, fuqarolik tengligi va madaniy hurmat orqali rivojlanadi (*Geoffrey Brahm Levey, Tariq Modood, 2009:254*). Diniy ozchiliklar va sotsial siyosat bo'yicha mutaxassis Xoseline Kesari musulmon ozchiliklar masalasini diniy siyosat hamda sekulyar jamiyatlar kontekstida tahlil etgan. Uning izlanishlarida e'tirof etilishicha, Fransiya va Germaniyada musulmon jamiyatlarining integratsiyasi asosan davlat siyosati (laïcité) bilan qanday muvozanatlashuvi bilan belgilanadi (*Cesari J., 2013:125*). Muqtedar Xon va boshqalar ekspertlar esa musulmon ozchiliklar siyosiy va ijtimoiy integratsiyasi hamda hukumatlar siyosati o'rtasidagi aloqani tahlil qilganlar. Bunday tadqiqot dunyodagi musulmon ozchilik aholining huquqiy maqomi, xavfsizlik siyosati va madaniy barqarorlik mavzularini qamrab oladi.

Ikkinchi guruh olimlar diniy ozchilik sharoitida ijtimoiy integratsiyasiga nisbatan musulmon dunyosining ichki tabiiy immunitetini mavjudligini ta'kidlaydilar va bu fikr fikrlarini islom fiqhida shakllangan “wasatiyya”, “fiqh al-aqalliyat” tamoyillari asosida izohlashga harakat qilganlar. Masalan, wasatiyya — musulmon ozchiliklar uchun maxsus yuridik-ijtihodiy yondashuv bo'lib, bu tamoyil zamonaviy davrda Yusuf Qardoviy tomonidan takomillashtirilgan. Mazkur olimlar fikriga ko'ra, ozchilik sharoitida musulmonlar qabul qiluvchi jamiyat qonunlarini hurmat qilish bilan birga diniy identitetni himoya qilishni maqsad qiladi (*Yusuf al-Qaradawi, 2003:174*). Shuningdek, Maulana Wijaksono tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, islomiy ta'lim musulmon ozchiliklar uchun ijtimoiy moslashuvchanlikni (*resilience*) mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv musulmon jamoaning ijtimoiy tarmoqlar, etika va madaniy xulq orqali jamiyat bilan uzviy bog'lanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ijtimoiy fanlarda “diniy ozchilik” (religious minority) tushunchasi jamiyatda son jihatdan ustun bo'lmagan, biroq aniq diniy identitetga ega, o'z e'tiqodiy amaliyotlari, institutlari va madaniy qadriyatlari bilan ajralib turuvchi ijtimoiy guruhni ifodalaydi. Diniy ozchiliklar tushunchasi faqat demografik mezonlar bilan cheklanmay, balki ijtimoiy mavqe, huquqiy tan olinishi, madaniy ko'rinishchanlik va siyosiy ta'sir darajasi kabi omillarni ham o'z ichiga oladi. BMTning inson huquqlari bo'yicha hujjatlarida diniy ozchiliklar “ma'lum bir davlat hududida ko'pchilikdan farqli diniy e'tiqodga ega bo'lgan, o'z diniy identitetini saqlab qolishga intiluvchi guruhlar” sifatida talqin etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda diniy ozchilik masalasi bir nechta asosiy nazariy yondashuvlar asosida tahlil

qilinadi. Masalan, sotsiologiyada diniy ozchiliklar ijtimoiy integratsiya, asimilyatsiya, multikulturalizm, ijtimoiy chetlanish (social exclusion) kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Maks Veber va Emil Durkgeym diniy guruhlarining jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalarini tahlil qilib, diniy ozchiliklarning ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi yoki aksincha, ziddiyatlarni yuzaga chiqaruvchi rolini ochib berganlar. Zamonaviy davrda Tariq Madud (Tariq Modood), Rojers Brabeker (Rogers Brubaker) va Xose Kasanova (José Casanova) diniy ozchiliklarni fuqarolik tengligi va identitet siyosati doirasida tahlil qilgan.

Siyosatshunoslikda diniy ozchilik tushunchasi davlat–din munosabatlari, sekulyarizm modellari, diniy erkinliklar siyosati bilan bog'liq holda o'rganiladi. Xoselin Sezari (Jocelyne Cesari) diniy ozchiliklarning Yevropa jamiyatlarida integratsiyasi davlatning diniy siyosati bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, diniy ozchiliklar masalasi xavfsizlik paradigmasi emas, balki fuqarolik huquqlari va ijtimoiy inklyuziya doirasida ko'rinishi lozim (*Cesari, Jocelyne, 2006:52*). Xalqaro huquqda diniy ozchiliklar masalasi quyidagi asosiy hujjatlar orqali tartibga solinadi: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948); Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966); Milliy yoki etnik, diniy va til ozchiliklariga mansub shaxslar huquqlari deklaratsiyasi (1992). Mazkur hujjatlarda diniy ozchiliklarning diniy e'tiqodni erkin ado etish, diniy ta'lim olish, diniy institutlar tuzish huquqlari alohida e'tirof etiladi.

Dinshunoslikda diniy ozchilik tushunchasi diniy identitet, e'tiqodiy moslashuv, teologik pluralizm masalalari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Islomshunoslikda “diniy ozchilik” masalasi “fiqh al-aqalliyat” (ozchilik fiqhi) konsepsiyasi orqali yoritiladi. Yusuf Qardaviy bu tushunchani musulmonlarning musulmon bo'lmagan jamiyatlarda yashash sharoitidagi diniy-amaliy masalalarini hal qilish mexanizmi sifatida ishlab chiqqan (*Tauseef Ahmad Parray, 2012: 53-86*). Xristianlik va yahudiylilik tadqiqotlarida esa diniy ozchilik masalasi diasporal tajriba va diniy moslashuv strategiyalari orqali tahlil qilinadi.

Zamonaviy dunyoda musulmonlar son jihatdan eng yirik diniy jamoalardan biri bo'lishiga qaramay, ular Yer yuzining ko'plab hududlarida diniy ozchilik maqomida yashab kelmoqda. Pew Research Center (2023) ma'lumotlariga ko'ra, musulmonlar taxminan 50 dan ortiq davlatda aholining 10 foizidan kam qismini tashkil etadi. Shu bois “musulmon ozchiliklar” fenomeni dinshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar doirasida muhim tadqiqot obyektiga aylangan.

Yevropa hududida musulmonlar asosan migratsiya natijasida shakllangan diniy ozchilik hisoblanadi. Bu qit'aning Fransiya (8–10%), Germaniya (6–7%),

Buyuk Britaniya (6% atrofida), Niderlandiya, Belgiya, Shvetsiya, Avstriya kabi davlatlarida musulmonlar ozchilikni tashkil etib, “diniy ozchilik” sifatida muayyan o‘ziga xoslikni ifoda qiladi. Masalan, mazkur o‘lkalarda musulmonlar konstitutsiyaviy jihatdan teng fuqarolar sanalsa-da, ular sekulyarizm va integratsiya siyosati bilan bog‘liq bahslar subyektiga aylangan hamda diniy ramzlar (hijob, masjidlar, halol ovqat) masalalari muhim ijtimoiy muhokama mavzusi hisoblangan holat uchraydi.

AQSh (1–1,5%) va Kanada (4% atrofida)da musulmonlar “diniy ozchilik” sanalsa-da, diniy erkinlik yuqori bo‘lgan sharoitda yashaydi. Ayniqsa, AQShda musulmon jamoalari ko‘pincha fuqarolik integratsiyasi yuqori guruh sifatida qayd qilinadi. Lotin Amerikasi, jumladan, Braziliya, Argentina, Meksika, Chilida musulmonlar son jihatdan kichik bo‘lib, ular, asosan, arab muhojirlari avlodlaridan iborat va ijtimoiy-siyosiy jihatdan kam muammoli, ammo ko‘rinmas (invisible minority) ozchilik sifatida qaraladi.

Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidan Hindiston (200 mln dan ortiq musulmon – ozchilik maqomida), Shri-Lanka, Myanma (rohinjalar), Filippin, Tailand kabi davlatlar musulmon ozchilik guruhlarini o‘z bag‘rida jamlagan va bu hududlarda islom dini vakillari tarixiy ildizlarga ega bo‘lish bilan bir qatorda murakkab integratsiyani boshdan kechirganlar. Sharqiy Osiyo mintaqasiga kiruvchi Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreyada ham musulmonlar diniy ozchilik hisoblanib, bu mamlakatlarda islom tarafdorlari integratsiyasi tarixiy o‘zgarishlar dinamikasiga, deb ko‘riladi.

Diniy ozchilik maqomida yashayotgan musulmon jamoalari ko‘plab davlatlarda nafaqat diniy identitetni saqlab qolish, balki jamiyatning iqtisodiy, ilmiy va fuqarolik taraqqiyotiga faol hissa qo‘shish orqali integratsiyaning muvaffaqiyatli modelini shakllantirmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli integratsiya diniy identitetdan voz kechish emas, balki “ko‘p qatlamli identitet” (multiple identity) asosida jamiyatga qo‘shilish orqali yuz beradi.

Kanadalik siyosatshunos Tariq Modood musulmon ozchiliklarning muvaffaqiyatini “multikultural fuqarolik” modeli bilan izohlaydi. Uning fikricha, “Musulmonlarning jamiyatga integratsiyasi sekulyarizm talab qilganidek diniy identitetni yo‘qotish orqali emas, balki diniy identitetni tan olgan holda fuqarolik tengligini ta‘minlash orqali amalga oshadi” (*Modood, Tariq, 1997:140*).

Kanada tajribasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Toronto, Monreal va Vankuver kabi shaharlarda musulmonlar ta‘lim, tibbiyot, biznes va davlat boshqaruvi tizimlarida faol qatnashmoqda. Kanada Statistika Agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, musulmon yoshlarning oliy ta‘limga kirish darajasi mamlakatdagi ko‘plab diniy guruhlardan yuqori hisoblanadi. Bu

esa diniy ozchiliklarning “ijtimoiy kapital” ishlab chiqaruvchi guruh sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda.

AQSh tajribasi ham muhim ahamiyatga ega. Pew Research Center (2021) tadqiqotiga ko‘ra, AQSh musulmonlarining katta qismi o‘zini bir vaqtning o‘zida ham “amerikalik”, ham “musulmon” deb identifikatsiya qiladi. Bu ikki identitetning bir-biriga zid emasligi fuqarolik integratsiyasining muhim ko‘rsatkichi sifatida talqin qilinadi. Amerikalik islomshunos John Esposito quyidagilarni ta‘kidlaydi: “AQSh musulmonlari diniy xilma-xillikni demokratik pluralizmning tarkibiy qismi sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda”.

Yevropa davlatlarida ham musulmonlarning ijtimoiy muvaffaqiyatlari kuzatiladi. Buyuk Britaniyada London meri lavozimiga musulmon siyosatchi Sodiq Xonning saylanishi diniy ozchilik vakillarining demokratik tizimdagi muvaffaqiyatli integratsiyasining ramziy ifodasiga aylandi. Germaniyada musulmon shifokorlar, muhandislar va tadbirkorlar mamlakat iqtisodiyotining muhim qismiga aylangan. Ijtimoiy jihatdan musulmon jamoalarining muvaffaqiyati quyidagi natijalarni yuzaga chiqarmoqda: madaniyatlararo muloqotning kengayishi; diniy bag‘rikenglikning mustahkamlanishi; radikallashuvning oldini olish; fuqarolik birdamligining kuchayishi; iqtisodiy faol qatlamning shakllanishi. Shu ma’noda, Xose Kasanova diniy ozchiliklarning ijtimoiy rolini fuqarolik jamiyatining muhim subyekt sifatida demokratik pluralizmni mustahkamlashi bilan baholaydi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, musulmon ozchiliklar ko‘plab jamiyatlarda integratsiyalashuv jarayonida murakkab muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolar diniy diskriminatsiya, islamofobiya, siyosiy marginalizatsiya, iqtisodiy tengsizlik va identitet inqirozi shaklida namoyon bo‘ladi. Fransiya “laïcité” (qat’iy sekulyarizm) modeli musulmonlarning diniy identiteti bilan bog‘liq bahslarni keskinlashtirgan. Hijob, niqob va diniy ramzlar masalasi davlat va musulmon jamoalari o‘rtasida muntazam ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo‘lmoqda. Fransuz tadqiqotchisi Xoselin Sezari yozadi: “Yevropada islom ko‘pincha diniy masala sifatida emas, balki xavfsizlik va milliy identitet muammosi sifatida talqin qilinmoqda”. 2023-yilda Fransiya maktablarda abaya kiyimini taqiqlash qarori musulmon jamoalari orasida diniy erkinlikning cheklanishi sifatida baholandi.

Hindistonda musulmonlar son jihatdan 200 milliondan ortiq bo‘lsa-da, siyosiy jihatdan ozchilik maqomida qolmoqda. So‘nggi yillarda hindu millatchiligi kuchayishi natijasida musulmonlarga nisbatan diskriminatsion holatlar ortgani xalqaro tashkilotlar tomonidan qayd etilgan. Amnesty International hisobotida quyidagicha qayd etiladi: “Hindistonda musulmonlarga qarshi nafrat ritorikasi

va fuqarolik cheklovlari demokratik pluralizmga xavf tug'dirmoqda".

Xitoyning Shinjon hududidagi uyg'ur musulmonlari masalasi zamonaviy dunyodagi eng keskin diniy ozchilik muammolaridan biridir. Human Rights Watch va BMT ekspertlari diniy amaliyotlarning cheklanishi, qayta tarbiyalash lagerlari va madaniy assimilyatsiya siyosati haqida bir necha bor bayonot bergan. Bu holat diniy ozchiliklarning "xavfsizlik paradigmasi" asosida boshqarilishi ijtimoiy integratsiya o'rniga ziddiyatlarni kuchaytirishini ko'rsatadi. Rohinja musulmonlari fuqarolik huquqlaridan mahrum etilgan eng zaif diniy ozchiliklardan biri hisoblanadi. BMT ularni "dunyodagi eng ko'p ta'qib qilinayotgan ozchilik" deb atagan. Bu misol diniy ozchilik masalasi faqat integratsiya emas, balki inson huquqlari va siyosiy himoya bilan ham bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlar musulmon ozchiliklarning muvaffaqiyatli integratsiyasi uchta asosiy omilga bog'liqligini ko'rsatadi: huquqiy tenglik; madaniy tan olinishi; fuqarolik ishtirokining kengayishi.

Islom tarixida musulmonlarning ozchilik sifatida yashagan ilk tajribalaridan biri Habashiston hijrati hisoblanadi. Muhammad payg'ambar (s.a.v.) sahobalarning nasroniy hukmdor Najoshiy huzuriga hijrat qilishiga ruxsat berganlari musulmonlarning boshqa diniy jamiyat bilan tinch hamkorlik asosida yashashi mumkinligini ko'rsatadi. Yusuf al-Qardaviy "fiqh al-aqalliyat" konsepsiyasida musulmon ozchiliklar yashayotgan jamiyat qonunlariga rioya qilishi, ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishi va jamiyat manfaatiga xizmat qilishi lozimligini ta'kidlaydi. U "musulmon ozchiliklar yashayotgan jamiyatining foydali va faol fuqarolari bo'lishi diniy mas'uliyatning bir qismidir" deya ta'kidlagan (*Moh Asror, Rofiqi Rofiqi, Hammis Syafaq, Masdar Hilmy, 2023:83-98*).

Bundan tashqari, diniy ozchilik sharoitida musulmon jamoalarining integratsiyasini ta'minlovchi qator huquqiy va madaniy-ma'rifiy choralarni keltirish mumkin. Kanada va Buyuk Britaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat diniy identitetni inkor etmasdan ham sekulyar boshqaruvni saqlab qolishi mumkin. Bu model "inklyuziv sekulyarizm" deb ataladi. UNESCO tadqiqotlariga ko'ra, diniy savodxonlik va madaniyatlararo ta'lim islamofobiya va diniy stereotiplarni kamaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, olimlar tomonidan "fuqarolik integratsiyasi" iborasi ilgari suriladi. Unga ko'ra, musulmon jamoalarining siyosiy va fuqarolik institutlarida faol ishtiroki radikallashuv xavfini kamaytiradi hamda ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi. Qolaversa, mazkur masala vijdon va e'tiqod erkinligi masalasi sifatida baholanib, BMTning 1992-yilgi "Diniy ozchiliklar huquqlari deklaratsiyasi" diniy institutlar tashkil etish, ibodat qilish va diniy ta'lim olish

huquqlarini kafolatlaydi. Ushbu me'yorlarning amalda ta'minlanishi integratsiyaning asosiy sharti hisoblanadi.

XULOSA

Diniy ozchilik sharoitida yashayotgan musulmon jamoalari zamonaviy globallashuv davrining muhim ijtimoiy subyektiga aylangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musulmonlarning muvaffaqiyatli integratsiyasi diniy identitetni yo'qotish emas, balki uni fuqarolik tengligi va pluralistik jamiyat bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshadi.

Kanada, AQSh va Buyuk Britaniya tajribasi musulmon ozchiliklarning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy hissa qo'sha olishini ko'rsatgan bo'lsa, Fransiya, Hindiston, Myanma va Xitoydagi holatlar diniy erkinlik va ijtimoiy inklyuziyaning yetishmasligi ziddiyatlarni kuchaytirishini namoyon qilmoqda.

Shu bois zamonaviy jamiyatlarda musulmon ozchiliklarning integratsiyasi: inson huquqlarini himoya qilish; madaniy xilma-xillikni qadrlash; diniy bag'rikenglikni rivojlantirish; fuqarolik tengligini ta'minlash asosida olib borilishi zarur. Mazkur yondashuv nafaqat musulmon jamoalari, balki ko'p konfessiyali jamiyatlarning barqaror rivojlanishi uchun ham muhim omil hisoblanadi.

REFERENCES:

1. Secularism, religion, and multicultural citizenship / [edited by] (2009) Geoffrey Brahm Levey, Tariq Modood. – New York: Cambridge University Press.
2. Modood Tariq. (1997) Ethnic minorities in Britain : diversity and disadvantage. – London: Policy Studies Institute.
3. Cesari J. (2013) Why the West Fears Islam: An Exploration of Muslims in Liberal Democracies (Culture and Religion in International Relations). – London: Palgrave Macmillan.
4. Cesari, Jocelyne. (2006) When Islam and democracy meet: Muslims in Europe and in the United States. – London: Palgrave Macmillan.
5. Tauseef Ahmad Parry. (2012) "Global Muslim Voices on Islam – Democracy Compatibility and Co-Existence: A Study of the views of Sadek Sulaiman, Louay Safi, Radwan Masmoudi, and Muqtedar Khan" published in 'Journal of Middle Eastern and Islamic Studies (in Asia) [JMEISA] (Washington, D.C., USA/Shanghai, China), ISSN: 1937-0679, vol. 6 , no.1, pp. 53-86.
6. Moh Asror, Rofiqi Rofiqi, Hammis Syafaq, Masdar Hilmy. (2023) Yusuf al-Qaradawi's perspective on fiqh aqalliyat in a multicultural society // *Khazanah Jurnal Studi Islam dan Humaniora*, 21(1), July 83-98.
7. Yusuf al-Qaradawi. (2003) Fiqh of Muslim Minorities (Contentious Issues & Recommended Solutions). – Cairo: AL-FALAH FOUNDATION.
8. <https://www.ijtihad.org/AM911.htm>